

**“O‘zbekiston respublika tovar xom-ashyo birjasi” AJda Birja a’zolari
tomonidan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni
moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga
qarshi kurashish sohasida ichki nazoratni tashkil etish va amalga oshirish tartibi
mavzusida o‘quv-amaliy seminari o‘tkazildi**

Joriy yilning 14-noyabr kuni birjaning Markaziy apparati binosida “Birja a’zolari tomonidan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasida ichki nazoratni tashkil etish va amalga oshirish tartibi” to‘g‘risida o‘quv-amaliy seminari tashkil etildi.

“O‘zRTXB” AJ Komplayens-nazorat va axborot xavfsizligi Bosh boshqarmasi tashabbusi bilan tashkil etilgan seminarda birja a’zolari, markaziy apparat xodimlari hamda hududiy filiallarda faoliyat yurituvchi birja a’zolari ZOOM videokonferensiya dasturi orqali ishtirot etdi.

Seminarda, “O‘zRTXB” AJ PR bo‘limi boshlig‘i H. Tillayev so‘zga chiqib Birja a’zolari tomonidan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasida mamlakatimizda so‘nggi yillarga keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilayotganligini va bunday turdag'i iqtisodiy jinoyatlarning har qanday ko‘rinishlariga qat’iy murosasizlik madaniyatini shakllanayotgani hamda iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish bo`yicha samarali ishlar amalga oshirilayotganligini aytib o‘tdi.

Shundan so‘ng, Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasidan J. Ibragimov so‘zga chiqib seminar ishtirotchilariga Birja a’zolari tomonidan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasida qo‘llaniladigan qonun hujjatlari, ichki nazoratning maqsad va vazifalari, ichki nazoratni tashkil etish tartibi to‘g‘risida bat afsil ma’lumotlar berib o‘tdi.

Birja a’zolarining mas’ul shaxslarining majburiyatları hamda pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog‘liq operatsiya qaysi hollarda shubhali deb topilishi to‘g‘risida yig‘ilganlarga tushuntirishlar berib o‘tdi.

O‘quv seminari davomida O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti xodimi M. Sultonov so‘zga chiqib, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish jinoyatining kelib chiqish tarixi, ichki nazorat tushunchasi hamda shubhali opertsiyalar bilan ishslash tartibi to‘g‘risida atrofliycha ma’lumotlar berib o‘tdi.

Shundan so‘ng shubhali operatsiyalar to‘g‘risida vakolatli organlarga xabar bermaslik jinoiy javobgarlikni keltirib chiqarishi mumkinligi O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining tegishli moddalari keltirilgan holda seminar ishtirotchilariga tushuntirildi.

Suhbat davomida birja a’zolari jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasida o‘zlarini qiziqtirgan savollarga javob oldilar.

Seminar yakunida Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti xodimlari O. Alimullayev va X. Saidkarimovlar departament tomonidan ishlab chiqilgan jinoiy

faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasida shubhali operatsiyalar haqida xabarlarni yuborish platformasi ishlash hamda shubhali operatsiyalar to‘g‘risida ma’lumotlarni shaxsiy kabinetdan foydalangan holda yuborish tartibi to‘g‘risida amaliy misollar orqali tushuntirib berildi.

Seminar yakunida ishtirokchilar o‘zlarini qiziqtirgan savollarga javob oldilar.